



XALQARO MUNOSABATLARDA KLASSIK REALIZM NAZARIYASI

EVOLUTSIYASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Qodirov Xusanjon Usmonjon o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti

2-bosqich magistranti

Аннотация: В данной статье исследуются основные философские идеи эволюции классического реализма, основной теории международных отношений. Кроме того, в статье рассматривается исторический контекст и истоки реализма, прослеживая его корни у таких мыслителей, как Фукидид, Макиавелли и Гоббс. Это также выражает то, как классический реализм подчеркивал анархическую природу международной системы, корысть государств и вечную борьбу за власть.

Ключевые слова: Политический реализм, классика, структурный реализм, международная политика, итерация, неореализм.

Annotation: This article analyses philosophical underpinnings of one of the crucial theories of International Relations, classical realism. It also examines the historical context and origins of realism, tracing its roots to thinkers such as Thucydides, Machiavelli and Hobbes. It also highlights how classical realism emphasized the anarchic nature of the International system, the self-interest of states, and the eternal struggle for power.

Key words: Political Realism, classical, structural realism, international politics, iteration, neorealism

Annotatsiya: Ushbu maqolada, xalqaro munosabatlarning asosiy nazariyasi bo‘lgan klassik realizm evolutsiyasining asosiy falsafiy g‘oyalari tadqiq etiladi. Bundan tashqari, maqola realizmning tarixiy konteksti va kelib chiqishini o‘rganadi, uning ildizlarini Fukidit, Makavielli va Gobbs kabi mutafakkirlarga qaratadi.



Shuningdek, klassik realizm xalqaro tuzumning anarxik tabiatini, davlatlarning o‘z manfaatlarini va kuch uchun abadiy kurashni qanday ta’kidlaganini ifodalaydi.

Maqolada qo‘llanilgan tadqiqot usullari. Maqolani tayyorlash jarayonida bir nechta turli tadqiqot usullari qo‘llanildi, jumladan: tarixiy-tahliliy usul, bu bizga o’sha davrdagi voqealar va hujjatlar bilan bog’liq manbalarni tahlil qilish imkonini berdi. Shu o‘rinda, qo‘llanilgan usullar qadimgi dunyo tarixidaan tortib hozirgi davrgacha bo‘lgan klassik realism evolutsiyasini ilmiy jihatdan o‘rganish hamda uning ma’nosini kengroq yoritishga yordam berdi.

Kalit so‘zlar: Siyosiy realizm, klassik, strukturaviy realizm, xalqaro siyosat, iteratsiya, neorealizm

Klassik realizm xalqaro munosabatlarni o‘rganishdagi eng katta ta’sirga ega bo‘lgan nazariy asoslardan biridir. U inson tabiati va tarixiy asoslarni chuqr tushunishga asoslangan bo‘lib, unga ko‘ra davlatlar xatti-harakatlari va global siyosat dinamikasini tahlil qilish uchun umumiylazariya taqdim etiladi. “Klassik” atamasi ushbu tafakkur maktabini XX asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan strukturaviy realizm yoki neorealizm kabi realizmnning ya’ni o‘zidan keyingi amaliy shakllaridan farqlash uchun qo‘llaniladi. Ushbu maqola klassik realizmnning falsafiy asoslarini, uning asosiy tamoyillarini va «klassik» atamasining uni belgilashdagi ahamiyatini o‘rganadi. Klassik realizm eng qadimgi va eng ta’siri kuchli nazariy asoslardan biri sifatida xalqaro munosabatlar nazariyasi asoslarini tushunish uchun lozim bo‘lgan eng asosiy paradigmidan biri sanaladi. Uning falsafiy asoslarini o‘rganish orqali o‘quvchilar zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyasining intellektual ildizlarini chuqurroq tushunishadi. Bu bilim liberalizm, konstruktivizm va neorealizm kabi boshqa nazariy yondashuvlarni kontekstuallashtirish va tanqid qilish uchun zarur hisoblanadi.

Klassik realizm xalqaro siyosatni shakllantirishda inson tabiati va kuch uchun kurashning rolini ta’kidlaydi. Ushbu tushunchalarni o‘rganish nega davlatlar ko‘pincha o‘z manfaati, xavfsizligi va kuchni axloqiy yoki umuminsoniy nuqtai nazardan ustun qo‘yishini tushuntirishga yordam beradi. Bu istiqbol tarixiy va



zamonaviy qarama-qarshiliklarni, masalan, buyuk kuchlar raqobati, urushlar va diplomatik muzokalarlarni tahlil qilish uchun juda muhimdir. Maqolada klassik realizmning asosiy g‘oyasi bo‘lgan xalqaro tizimdagagi anarxiya tushunchasi o‘rganiladi. Markaziy hokimiyatning yo‘qligi davlat xatti-harakatlariga qanday ta’sir qilishini tushunish ittifoqlar, kuchlar muvozanati va Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi xalqaro institutlarning chekllovleri kabi muammolarni tahlil qilish uchun asos yaratadi. Ushbu nazariyaning yana bir asosiy tamoyillaridan biri bu davlatlarning o‘z manfaatini ko‘zlab ish tutishidir. Milliy manfaatlar deganda bir davlatning boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarda erishmoqchi bo‘lgan maqsad va vazifalari tushuniladi. Bularga xavfsizlik, iqtisodiy farovonlik, hududiy yaxlitlik, madaniy yoki mafkuraviy qadriyatlarni targ‘ib qilish kiradi. Milliy manfaatlar klassik realizmda kuch tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Davlatlar boshqalarga nisbatan o‘z kuchlarini maksimal darajada oshirishga intiladi, shuning uchun ushbu manfaatlarni tushunish xalqaro munosabatlardagi kuch dinamikasini yaxshiroq tahlil qilish imkonini beradi. Siyosatchilar uchun milliy manfaatlarni aniq tushunish xalqaro munosabatlarning murakkabliklarini hal qilishda davlat maqsadlariga mos keladigan samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir. Zero prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Aqsh elchisi Entoni Blinkenning O‘zbekistonga tashrifidan so‘ng, o‘zi ishtirokida Termiz shahrida xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashi sessiyasida tashqi siyosatdagi ayrim holatlar, O‘zbekiston kim tarafda turishi haqida to‘xtalib o‘tdi. “Sizlar bilinglar: zamon juda murakkab. Hozir katta-katta davlatlar: «O‘zbekiston, sen kim tarafda. Bo‘ldi endi, neytral bo‘lib yurishing bo‘ldi, yo u tomonga o‘tgin, yo bu tomonga o‘tgin», deya qattiq-qattiq aytib, vakillari ham kelib shunga da’vat qilyapti. «O‘rta Osiyoda O‘zbekiston bizga kerak, 36 million bo‘ldi, 3-4 yilda 40 million bo‘ladi, katta davlat bo‘ladi, kim tarafsan?» - deyapti. Qarang, shunday og‘ir savolga qanday javob berish kerak? Javob bitta: bir tomonman, millatim, xalqim, buyuk O‘zbekistonimning manfaati uchun o‘lishga ham tayyorman, deb javob beraman”, deb ta’kidladi, yurtboshimiz.

Shuningdek ushbu nazariya Fukidit, Makiavelli va Gobbs kabi qadimgi va ilk zamonaviy mutafakkirlarning asarlariga tayanadi. Ushbu falsafiy ildizlarni o‘rganish



kuch siyosatining tarixiy davomiyligini va zamonaviy global voqealarni tushuntirishda klassik realistik g'oyalarning doimiy dolzarbligini baholashga yordam beradi. Klassik realizm neorealizm (strukturaviy realizm) va hujumkor/mudofaa realizmi kabi keyingi nazariy rivojlanishlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Uning falsafiy asoslarini o'zlashtirish orqali yanada murakkab va nozik xalqaro munosabatlar nazariyalari bilan shug'ullanish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi. Chunki klassik realizm zamonaviy muammolarni tahlil qilishda juda dolzarb bo'lib qolmoqda, masalan:

- Buyuk kuchlar raqobati (masalan, AQSh-Xitoy munosabatlari)
- Mojarolar va urushlar (masalan, Isroil-Falastin urushi)
- Xalqaro institutlar va normativlarning roli
- Globallashuv va o'zaro bog'liqlik muammolari

Klassik realizmni tushunish nega davlatlar ko'pincha o'zaro bir biriga bog'liq bo'lgan dunyoda ham o'z manfaatlarini ko'zlaydigan yoki tajovuzkor ko'rindigan tarzda harakat qilishini tushuntirishga yordam beradi.

Klassik realizmning falsafiy asoslari va tarixiy ildizlari. Klassik realizm G'arb tafakkurining falsafiy an'analarida chuqur ildiz otgan bo'lib, Fukidit, Nikkolo Makiavelli, Tomas Gobbs kabi mutafakkirlarning ushbu nazariya shakllanishi uchun ta'siri kuchli hisoblanadi. Klassik realizm o'z zamirida inson tabiatiga pessimistik qarashga asoslanadi. Realistlarning ta'kidlashicha, odamlar tabiatan o'z manfaatlarini ko'zlaydi, raqobat va kuchga intilish ularning tabiatida doim mavjuddir. Bu qarash ko'pincha Gobbsning nazariyalariga to'g'ri to'g'ri keladi, u insonlarning tabiiy holatini «hammaning hammaga qarshi urushi» deb ta'riflagan, va hayot «yomon, shafqatsiz va qisqa» deb ta'kidlaydi. Xalqaro tizimda markaziy hokimiyatning yo'qligi doimiy ishonchsizlik holatini yaratadi, bu davlatlarni o'z-o'ziga yordam va kuch to'plashni birinchi o'ringa qo'yishga majbur qiladi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro tizim anarxik maydon sifatida qaraladi, bu erda davlatlar, xuddi shaxslar kabi, o'zlarining omon qolishlari va xavfsizligini hamma narsadan ustun qo'yishga majburdirlar. Qadimgi yunon tarixchisi Fukidit ko'pincha birinchi realist mutafakkir sifatida qabul qilinadi. Fukiditning "Peloponnes urushi tarixi" asari ko'pincha



realistik fikrni aks ettiruvchi eng qadimgi matn sifatida tilga olinadi. Uning Afina va Sparta o‘rtasidagi to‘qnashuv haqidagi hikoyasi kuch siyosatining markaziyligini va anarxik tizimda nizolarning muqarrarligini ta’kidlaydi. Mashhur “Melian dialogi”da uning mashhur «kuchlilar qo‘lidan kelganini qiladi, zaiflar esa keragicha azob chekishadi» degan gapi axloqiy mulohazalar ko‘pincha kuch siyosatining imperativlariga bo‘ysunadi degan realistik e’tiqodni qamrab oladi. Shuningdek Peloponnes urushi haqidagi hikoyasida u davlatlarning xatti-harakatlarini shakllantirishda kuch va qo‘rquvning rolini ta’kidladi. Shu o‘rinda Makiavelli bu g‘oyalarni o‘zining «Hukmdor» asarida yanada rivojlantirdi va u yerda hukmdorlar pragmatik bo‘lishi va o‘z hokimiyatini saqlab qolish uchun kuch va yolg‘ondan foydalanishga tayyor bo‘lishi kerakligini ta’kidladi. Uning siyosatga pragmatik yondashuvi, “maqsadlar vositalarni oqlaydi” degan g‘oyani qamrab olgan holda, davlat manfaatlari ustuvorligiga realistik ishonch va nochiziq tizimli dunyoda pragmatik qarorlar qabul qilish zaruriyatini aks ettiradi. Makiavelli uchun kuchga intilish shunchaki maqsadga erishish vositasi emas, balki o‘z-o‘zidan maqsaddir. Siyosatga bunday axloqiy tamoyillarsiz yondashish klassik realizmning xalqaro munosabatlarda kuch ustuvorligini ta’kidlashiga zamin yaratdi. Hans Morgentauning “Xalqlar o‘rtasidagi siyosat” asari zamonaviy klassik realizmning aniq matnidir. Morgentau siyosiy realizmning oltita tamoyilini bayon qilib, xalqaro siyosatda inson tabiatining o‘rni, hokimiyat uchun kurash va axloqning chegaralanganligini ta’kidlaydi. Uning ta’kidlashicha, davlatlar birinchi navbatda kuch nuqtai nazaridan belgilangan milliy manfaatlardan kelib chiqadi. Morgentau asari klassik realistik fikrni tizimlashtiradi va uni xalqaro munosabatlar nazariyasida hukmron paradigma sifatida belgilaydi. Chunki jahon urushlari Xalqaro munosabatlarda idelalizm g‘oyasi uchun katta zarba bo‘ldi. Urushlararo davrda hukmronlik qilgan ba’zi idealistik g‘oyalar E.H. Karning “Yigirma yillik inqiroz” asarida tanqid qilinadi. Karning ta’kidlashicha, kuch xalqaro siyosatda markaziy omil bo‘lib, axloqiy va huquqiy normalar ko‘pincha qudratli davlatlar tomonidan o‘z hukmronligini saqlab qolish uchun foydalanadigan vositadir. Shu bilan birga, kuch xalqaro munosabatlarning yakuniy belgilovchi omili bo‘lib, axloqiy va huquqiy normalar ko‘pincha qudratli



davlatlar tomonidan o‘z manfaatlariga xizmat qilish uchun manipulyatsiya qilinadi. Uning ijodi klassik realizm bilan keyingi strukturaviy realistik nazariyalar orasidagi tafovutni yo‘qqa chiqaradi.

Klassik realizmning asosiy tamoyillari. Klassik realizm bir nechta asosiy tamoyillar bilan tavsiflanadi:

1. Anarxik xalqaro tizim: Klassik realistlar xalqaro tizimni tabiatan anarxik deb hisoblashadi, qoidalarni qo‘llash yoki tartibni saqlash uchun markaziy hokimiyatga ega emas. Bunday tizimda davlatlar o‘z yashashlarini ta’minlash uchun o‘z-o‘zidan yordamga tayanishi kerak.

2. Kuch ustuvorligi: Kuch xalqaro siyosatning markaziy valyutasidir. Davlatlar o‘z manfaatlarini ta’minlash va potentsial tahdidlarning oldini olish uchun o‘z kuchlarini maksimal darajada oshirishga intiladi. Bu ko‘pincha kuchlar muvozanatiga olib keladi, bu yerda davlatlar kuchliroq aktyorlarni muvozanatlash uchun ittifoq tuzadilar.

3. Inson tabiati va davlat xulq-atvori: Klassik realistlar davlatlarning xattiharakati oxir-oqibat inson tabiatining in’ikosi ekanligini ta’kidlaydilar. Insonlar shaxsiy manfaat va hokimiyatga intilish bilan boshqarilganidek, davlatlar ham shunday.

4. Axloqiy nomutanosiblik: Klassik realistlar axloqning xalqaro munosabatlardagi roliga shubha bilan qaraydilar. Ularning ta’kidlashicha, milliy manfaatlar yo‘lida axloqiy tamoyillar ko‘p hollarda murosaga keladi. Bu axloqning ahamiyatsizligini anglatmaydi, aksincha, u kuch va omon qolish imperativlariga bo‘ysunadi.

5. Tarixiy davomiylik: Klassik realistlar hokimiyat siyosatining barqarorligini ta’kidlaydilar. Ular xalqaro munosabatlarning fundamental dinamikasi texnologiya, mafkura va xalqaro tizim strukturasidagi o‘zgarishlarga qaramay, tarix davomida barqaror bo‘lib kelganligini ta’kidlaydilar.

Nega aynan «Klassik» atamasi? “Klassik” atamasi ushbu tafakkur maktabini realistik nazariyaning keyingi rivojlanishidan, xususan, XX asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan strukturaviy realizm yoki neorealizmdan farqlash uchun ishlataladi. Klassik



realizm Fukidit, Makiavelli, Gobbs falsafiy an'analaridan kelib chiqqan bo'lib, Hans Morgentau tomonidan o'zining "Xalqlar o'rtasidagi siyosat" (1948) asarida rasmiylashtirilgan, va u xalqaro siyosatni shakllantirishda inson tabiatini va tarixiy asoslarning rolini ta'kidlaydi. Unda davlatlar o'z manfaatlarini ko'zlab harakat qiladilar va hokimiyatga intiladilar, chunki odamlar tabiatan xudbin, raqobatbardosh va hukmronlik qilish irodasi bilan boshqariladi. Ushbu nazariya asosan strukturaviy realism yoxud neorealizm nazariyasidan farq qiladi. Ushbu nazariya, Kennet Volts tomonidan o'zining "Xalqaro siyosat nazariyasi" (1979) kitobida keltiriladi. Bu nazariya klassik realizmning mantiqiy davomi sifatida qaraladi. Unda asosiy e'tiborni inson tabiatidan ko'ra ko'proq xalqaro tizim tuzilishiga qaratadi. Voltsning ta'kidlashicha, davlatlar yoki shaxslarning o'ziga xos tabiatini emas, balki xalqaro tizimning anarxik tuzilishi davlat xatti-harakatlarining asosiy omili hisoblanadi, ya'ni bu tizim davlatlarning ichki funksiyalari yoki xususiyatlari va davlat yetakchilarning maqsadlaridan qat'i nazar, ularni muayyan yo'llar bilan harakat qilishga majbur qiladi. Bunda asosiy e'tibor, individual (rahbarlar, qaror qabul qiluvchilar) tahlilga emas asosan tizimlilik darajasi (xalqaro tizimda kuchning taqsimlanishi) ga qaratilgan.

"Klassik" atamasi ilk realist mutafakkirlar tomonidan bildirilgan g'oyalarning doimiy dolzarbligini ham aks ettiradi. Yangi nazariy yondashuvlar paydo bo'lganiga qaramay, klassik realizm kuch siyosatining mohiyati va xalqaro munosabatlar muammolari haqida qimmatli tushunchalar berishda davom etmoqda. Uning inson xulq-atvorining abadiy jihatlariga va kuch dinamikasining tarixiy uzlucksizligiga urg'u berish uning global siyosatni o'rganishda doimiy dolzarbligini ta'minlaydi.

Klassik realizmning zamonaviy talqinlari. Klassik realizmning zamonaviy nazariyalari xalqaro munosabatlardagi zamonaviy murakkabliklarni hal qilishda oldingi mutafakkirlarning asosiy g'oyalariiga tayanib, rivojlanishda davom etmoqda. Klassik realizm ko'pincha Gans Morgentau, E.H. Karr va Reinhold Niebuhr kabi ilk realizm maktabi mutafakkirlari bilan bog'langan bo'lsada, hozirda ham zamonaviy olimlar klassik realistik g'oyalarni zamonaviy global muammolarni hal qilish uchun qayta ko'rib chiqib moslashtirmoqdalar. Ulardan biri Maykl Uilyams hisoblanadi.



Uilyams zamonaviy xalqaro siyosatni tushunishda uning dolzarbligini ta'kidlash uchun klassik realizmni, xususan, Morgentau ishini qayta ko'rib chiqqan zamonaviy olimdir. Uilyams o'zining "Realistik an'ana va xalqaro munosabatlar chegaralari" (2005) kitobida klassik realizm strukturaviy realizmga (neorealizm) qaraganda kuch va axlojni yanada nozikroq tushunishni taklif qiladi, deb ta'kidlaydi. U davlat xulqatvorida inson tabiatini, liderlik va axloqiy mulohazalar muhimligini ta'kidlaydi, bu ko'pincha strukturaviy yondashuvlarda e'tibordan chetda qoladi.

Klassik realizmni tanqidchilarga qarshi himoya qilgan yana bir zamonaviy mutafakkir Rojer Spegeledir. U o'zining "Xalqaro nazariyadagi siyosiy realizm" (1996) kitobida klassik realizm xalqaro munosabatlarni, xususan, inson tabiatini va yetakchilik roliga e'tibor qaratishini tushunish uchun yanada boyroq va moslashuvchan asosni taqdim etishini ta'kidlaydi. Richard Ned Lebou esa klassik realistik g'oyalarga, xususan, inson psixologiyasi va hissiyotlarining xalqaro siyosatdagi e'tirof etgan zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyotchisi hisoblanadi. Lebou o'zining "Siyosatning fojiali tomonlari: axloq, manfaatlar va tartiblar" (2003) kitobida klassik realizm davlatlar duch keladigan axloqiy dilemmalar va fojiali tanlovlarni tushunish uchun yanada kengroq asos yaratishini ta'kidlaydi. U neorealizmni moddiy kuchga haddan tashqari e'tibor qaratganligi va insonning vakolati va axloqiy jihatlariga e'tibor bermasligi uchun tanqid qiladi.

Xulosa

Klassik realizm xalqaro munosabatlar nazariyasining asosi bo'lib qolmoqda va davlatlar xatti-harakatlari va xalqaro tizim dinamikasini tushunish uchun asosli asosni taklif qiladi. Uning Fukidit, Makiavelli va Gobbs asarlarida ildiz otgan falsafiy asoslari jahon siyosatini shakllantirishda kuch, inson tabiatini va tarixiy davomiylik roli haqida abadiy qarashni ta'minlaydi. «Klassik» atamasi ushbu tafakkur mакtabini realizmning keyingi iteratsiyalaridan ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi, uning xalqaro munosabatlar nazariyasi rivojlanishidagi asosiy rolini ta'kidlaydi. Dunyo hokimiyat siyosatining murakkabliklari bilan kurashishda davom etar ekan, klassik realizm tushunchalari har doimgidek dolzarb bo'lib qolmoqda. Klassik realizm xalqaro munosabatlarni tushunish uchun jiddiy asos yaratsada, u inson tabiatiga pessimistik



qarashi, nodavlat sub'ektlari va tizimli omillarni e'tiborsiz qoldirgani uchun tanqidga duch keldi. Kennet Volts kabi neorealistlar inson tabiatiga emas, balki xalqaro tizim tuzilishiga e'tibor qaratib, klassik realistik g'oyalarga asoslanadi. Konstruktivistlar va liberal nazariyotchilar ham davlat faoliyatini shakllantirishda g'oyalar, me'yorlar va institutlarning rolini ta'kidlab, klassik realizmga qarshi chiqdilar. Ushbu tanqidlarga qaramay, klassik realizm xalqaro siyosatdagi kuch va ziddiyatning doimiy rolini tushuntirishda dolzarbligicha qolmoqda. Uning falsafiy asoslari buyuk kuchlar raqobati, kuchlar muvozanati va xalqaro hamkorlik chegaralari kabi masalalar bo'yicha zamonaviy munozaralarni davom ettirmoqda. Klassik realizm zamonaviy xalqaro munosabatlarda dolzarbligicha qolmoqda, chunki u global siyosatda yetakchilik, axloq va inson tabiatining rolini tushunish uchun asos yaratadi. Bu, ayniqsa, buyuk kuchlar raqobati, populizmning kuchayishi va tashqi siyosatdagi axloqiy dilemma kabi masalalarni tahlil qilish uchun muhim nazariya hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hobbes, T. (1914). Leviathan. London: J M. DENT & SONS LTD Aldine House.
2. Machiavelli, N. (2009). Prince. New York: Penguin Random House.
3. Morgenthau, H. J. (1948). Politics among nations, the struggle for power and peace. New York: Alfred A. Knopf, Inc.
4. Moylan, T. (2013). Review - History of the Peloponnesian War. 3-5.
5. Thucydides. (1950). History of the Peloponnesian war. New York: E.P.DUTTON AND COMPANY, INC. LONDON: J. M. DENT AND SONS, LIMITED .
6. Waltz, K. (1979). Theory of International Politics. Reading, Massachusetts: Addison-Wesley Publishing Company.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti <https://president.uz/oz/lists/view/5489>
8. <https://kun.uz/news/2023/03/13/shavkat-mirziyoyev-tashqi-siyosatda-ozbekiston-kim-tarafda-turishi-haqida-gapirdi>
9. Michael Williams *The Realist Tradition and the Limits of International Relations* (2005)



10. Richard Ned Lebow. The tragic vision of politics (2003). Cambridge University Press
11. Roger Spegele Political Realism in International Theory (1996)